



ТА'LIM-TARBIYADA UMUMINSONIY DEMOKRATIK PRINTSIPLAR

G‘ayullaev Bobur Nomonjon o‘g‘li

E-mail: gayullaev@gmail.com

UBS Pedagogika –psihologiya yo`nalishi 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Maqolada ta'lism-tarbiya jarayonida ta'lism-tarbiya, odob-axloq masalalari to'g'risida so'z yuritilgan. Tarbiyada insonparvarlik va demokratiya qoidasi umumiy ta'lism maktabi yangi pedagogik tafakkur egasi, munosib shaxs, o'z ishining ustasi bo'lgan o'qituvchining pedagogik mahoratidagi muhim xususiyatlardan biri ekanligi ochib berilgan.

Kalit so'zlar: demokratiya, odob, insonparvarlik, milliy ruh, g`oya, tafakkur, millat.

Mustaqillik bilan bog'liq boshlangan buyuk tarixiy taraqqiyot jamiyatimizga yangilanish davrini, rivojlanib dunyoning eng oldi davlatlari qatoriga chiqishni vazifa qilib qo'ymoqda. O'zbekistonda yangilanish davrida jamiyat ma'naviy hayotini sog'lomlashtirish va rivojlantirish, inson omiliga katta e'tibor berish eng asosiy vazifalardan biriga aylandi. "Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar davomida yaratib kelingan g'oyat ulkan, bebafo ma'naviy-madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan nihoyatda muhim vazifa bo'lib qoldi" - deb asosiy vazifa sifatida brinchi Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov belgilab bergan edi. Bularning asosida aynan ta'lism-tarbiya jarayonlarida umuminsoniy printsiplarni tadbiq etish hisoblandi. Sababiki, yuksak darajada rivojlangan millatgina porloq istiqlol, buyuk kelajak uchun o'zida kuch-qudrat topa oladi. O'zbekistonda ham yosh avlodni tarbiyalash, ularni yuksak ma'naviyatli etib shakllantirish natijasida o'z xalqimizni qadrlashni o'rgatish hisoblanadi.

Tarbiyada insonparvarlik va demokratiya qoidasi umumiy ta'lism maktabi yangi pedagogik tafakkur egasi, munosib shaxs, o'z ishining ustasi bo'lgan o'qituvchiga muhtoj. O'qituvchining bilim saviyasi, ma'naviyati jamiyatni harakatga keltiruvchi, taraqqiyotga eltuvchi yetakchi omillardan biridir. O'qituvchi yurish-turishi, xatti-harakati, kiyinishi, muomalasi bilan o'quvchi qalbiga kirishi, uni ezgulik sari yo'naltirishi kerak. Maktabda ruhiy xizmatdan foydalanib bolalar kayfiyatini, qiziqishini, intilishini va qobiliyatlarini aniqlash ta'lism-tarbiya jarayoniga ijodiy yondashishga imkon beradi. Yoshlarni insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalashda



muqaddas kitob Qur'oni Qarim, Hadisi sharifdan foydalanish juda muhim. Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'atit turk», Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig», Ahmad Yugnakiyning «Hibat-ul haqoyiq», Kaykovusning «Qobusnama», Ahmad Yassaviyning «Hikmatlari», Sa'diy Sheroziyning «Guliston va Bo'ston», Abdurahmon Jomiyning «Bahoriston», Alisher Navoiyning shoh asarlari, hikmatlari muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, maktabda o'quvchilarga gumanitar-ijtimoiy fanlardan ta'lif berishda tarbiyaga ko'proq e'tiborni qaratmoq lozim. Ayniqsa hozirgi sharoitda O'zbekiston tarixi, ada -biyotini o'qitish jarayonida bevosita tarbiyaga oid bo'lgan milliy ma'naviyatga, milliy ruh, urf-odat va, shuningdek, umumbashariy qadriyatlarga alohida urg'u berish zarur. O'qituvchi o'quvchi qalbiga yo'l topish uchun bilimi va ishi bilangina emas, ayni paytda odob-axloqi, madaniyati, rostgo'ylik va shirinsuhanligi bilan namuna bo'lishi lozim. Shundagina o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida haqiqiy do'stona munosabat qaror topadi. Tarbiyada inson shaxsini oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir bola, o'smir va yosh yigitning betakror va o'ziga xosligini hurmatlash, uning ijtimoiy huquqi va erkinligini hisobga olish lozim. Yaxshi o'qituvchi o'quvchilarning so'zini diqqat bilan tinglaydi, ularga dalda beradi, tinchlaniradi, to'g'ri baho qo'yadi, hammani teng ko'radi, bolalarni sevadi. Tarbiyani demokratiyalash — bu tarbiyani ma'muriy ehtiyoj va qiziqishlardan yuqori qo'yish, tarbiyachi va tarbiyalanuvchi o'rtasidagi o'zaro ishonch, hamkorlik asosida pedagogik munosabatlar mohiyatini o'zgartirish demakdir. Bu tarbiya ishiga jamoatchilikni jalg qilish, uning rivojlanishiga jamoat omilini kiritish demakdir. Shaxslararo munosabatlarda insonparvarlik, pedagoglar va o'qituvchilar o'rtasida hurmat tuyg'ularini shakllantirish, bolalar fikriga e'tibor qilish, ularga mehribonlarcha munosabatda bo'lish lozim. Maktab osoyishtalik, insonga mehr-muhabbat beshigi bo'lishi kerak. O'qituvchi o'quvchiga, avvalgidek, tarbiya ob'ekti emas, xuddi o'zi kabi sub'ekt deb qarashi darkor. Ya'ni o'quvchiga faqat mening buyrug'imni bajaruvchi emas, balki mening o'zim bilan teng huquqli, birga ishlovchi, hamkorlik qiluvchi deb qarashi lozim. Bola butun qalbini darsga bag'ishlasa, uni og'ir ahvolga solib qo'ygan bo'lamiz, u faqat o'quvchigina emas, avvalo, rang -barang qiziqishlar, ehtiyojlar, intilishlarga ega bo'lgan insondir. Tarbiyaviy faoliyatni demokratiyalash va insonparvarlashtirish uning mohiyati va mazmunini qayta tafakkur etishni ko'zda tutadi, shaxsning rivojlanish va o'zligini anglash huquqini ta'minlaydi. Tarbiyada milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustunligi qoidasi o'quvchilarni Vatanimiz qadriyatlari, boy madaniyati bilan tanishtirish, madaniy va diniy bilimlarni egallashga bo'lgan talablarini shakllantirish, malakalarini oshirib, tobora boyitish, estetik tushunchalarini shakllantirish juda



muhimdir. O'zbek xalqining madaniy merosini o'rganishda va rivojlantirishda milliy o'ziga xosligi, ma'naviy xususiyatlari hisobga olinib, xalq pedagogikasi an'analariiga suyangan holda ish ko'riliши maqsadga muvofiq. Kishilik jamiyatiga muhabbat, tabiat muxofazasi, madaniy yodgorliklarni saqlash ishlariga jalb qilish lozim. Ma'naviy qadriyatlar va g'oyalar har xil millat o'quvchilarini birlashtiradi, o'quv va mehnat faoliyatlarini uyushtirishga yordam beradi. Xalq pedagogikasini bola tarbiyasidagi boy tajribalari hayotga to'la tadbiq etilmaganligi, buyuk allomalarining pedagogik qarashlari, sharqona urf-odatlar, boy an'analari hayotga joriy etilmaganligi tarbiya borasida talay qusurlarning yuzaga kelishiga sabab bo'lgan. Xalqimizning ko'p asrlik qadriyatlarini, ulkan va boy madaniy merosini chuqur bilmasdan, milliy o'zlikni anglash, milliy g'urur tuyg'usini qaror toptirish mumkin emas. O'zbek xalqi ko'p asrlik tarixiy taraqqiyotida katta madaniyatni yaratdi. U yaratgan boyliklar yoshlar tarbiyasida muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Ismoil-al Buxoriy, al-Xorazmiy, Beruniy, Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Xojib, Axmad Yugnakiy, Sa'diy Sheroziy, Ahmad Yassaviy, Nizomiy Ganjaviy, Farididdin Attor, Abduraxmon Jomiy, Alisher Navoiy va boshqa buyuk mutafakkirlarning asarlari orqali o'quvchilar go'zal axloq, baxt, insof, poklik, iffat, sabr-matonat, mehr-shafqat, sihatsalomatlik, ota-onani hurmat kilish qoidalari haqida keng tasavvurga ega bo'ladilar. Insoniylik o'z tarkibiga insonning eng yaxshi axlokiy xususiyatlarini, ya'ni odamlar o'rtasida o'zaro yaxshi munosabatda bo'lish, do'stlik, ota-onaga sadoqatlik, mehnatsevarlik, diyonatlilik kabi fazilatlarni qamrab oladi. Otabobolarimiz bolalarda yoshlikdan ana shu go'zal fazilatlarni qaror toptirishga ahamiyat bergenlar.

Darhaqiqat, istiqlol tufayli O'zbekistonda ta'lim-tarbiya jarayonlari tubdan isloh etilishi bilan birga, jamiyat sifatida yangilanish davri ham boshlab berganidan dalolat beradi. Yangilanish bu o'z-o'zidan sodir bo'ladigan voqeа emas, balki dialektik rivojlanish, o'zgarish, o'zaro ta'sir, harakat kabi tomonlarni o'zida qamrab olgan murakkab ijtimoiy hodisadir. Yangilanish tufayli jamiyatda hamda ta'lim-tarbiyadagi yutuqlar va taraqqiyotga to'siq bo'layotgan hodisalar tahlil qilinadi.

"O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy printsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr – qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi. Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi". Demak, bugun o'zbekona, yangi falsafa shakllandi. O'zbekiston falsafasi o'ziga xos shunday ulkan borliqki unda milliylik bilan umuminsoniylik, diniylik bilan dunyoviylik, insoniylik bilan ezgulik, bunyodkorlik, individuallik bilan jamoaviylik uyg'unlashib ketgan. Uni Al-



Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, A.Navoiy, Z.M.Boburlarning ma'naviy merosi orqali anglaymiz yoki A.Avloniy, A.Qodiriy, A.Fitrat, A.Cho'lpon kabi ma'rifatchilik namoyondalari orqali ko'ramiz. "Ular boylik uchun, shon-shuhurat uchun maydonga chiqishmadi... ular o't bilan o'ynashayotganliklarini, istibdodga qarshi kurashayotganliklari uchun ayovsiz jazolanishlarini oldindan yaxshi bilishgan. Bila turib ongli ravishda mana shu yo'ldan borishgan. Chunki vijdonlari, iymonlari shunga da'vat etgan»

Shu bilan bir qatorda globallashuv jarayonida ta'lim va tarbiya jarayonlarida eskicha dunyoqarashlar yangicha idrok talablari bilan mos kelmay qolayotganligi tabiiy, chunki jamiyat taraqqiyoti tamoyillari yangicha siyosiy - ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy negizga asoslanmoqda. Olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar yoshlar ongida bir xilda shakllanmasligi tabiiy hol. Ammo masalani ikkinchi jihat shundaki, umuminsoniy qadriyat masalasi, xalqning, millatning kelajagi ekanligini hisobga olsak, bu jihatlarni yoshlarga yetkazishda nostandard yondoshuvlarni ham shakllantirish zurur deb hisoblaymiz. Chunki, agar tarbiya jarayonlarida yosh avlodni fikrlashi, ularga o'z tarixining kechagi va bugungi holatini o'rgatishda pedagogik vositalar asosida foydalansak, bu bugungi noaniq zamonda yuqori natijalarni bermasligi mumkin. Shuning uchun ham, ta'limning qaysi bo'g'ini bo'lishidan qat'iy nazar umuminsoniy qadriyatlarni o'quv reja va fan dasturlarida mujassamlashtirish, mashg'ulotlarni olib boruvchi pedagoglar ushbu jihatlarni e'tiborga olgan holda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llagan holda ham tushuntirish lozim bo'ladi. To'g'ri, umuminsoniy qadriyatlarni targ'ib etish aniq, tabiiy, xizmat ko'rsatish sohalari negizidagi fan blokida qiyin kechishi mumkindir. Ammo, mazkur sohalarda katta kashfiyotlar yaratgan Sharq allomalari Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Rayhon Bkruniy, Ibn Sino kabi qomusiy allomalarning merosi bilan dars mashg'ulotlarini bog'liq holda o'tkazish o'zining samarasini beradi deb o'ylaymiz. Bu birnchidan, yosh avlodga milliy g'ururni rivojlanishida xizmat qilsa, ikkinchi tomondan Sharq allomalari merosini chuqurroq o'rganishda yoshlarga qiziqishni ham uyg'otadi.

Aynan shu davrlarda "O'zbek modeli" nazarda tutgan transformatsiya va modernizatsiya ro'y beradi. Faylasuf olma R.Ro'ziyevaning qayd etishicha, "O'zbek modeli" jamiyat yangilanishining ijtimoiy-iqtisodiy andozasi sifatida: a) kishilar ongida bozor munosabatlarini yangicha qadriyat sifatida shakllanishiga yordam beradigan tushunchalar va qarashlarni paydo qildi;

b) jahon andozalarini, umuminsoniy qadriyatlarni milliy zaminga tadbiq etish imkonini berdi;



v) u milliy va umuminsoniy qadriyatlarni ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar zaminida uyg'unlashtirishning yo'llarini ko'rsatdi;

g) har qanday islohot, ayniqsa u xalq, millat hayotiga taalluqli bo'lsa, tarixiy-madaniy qadriyatlarga, milliy an'analarga, xalqning, millatning mentaliteti, ehtiyoji va qiziqishlariga mos kelgan taqdirdagina kutilgan natijalarga olib kelishi mumkinligini isbotladi.” Demak, bozor iqtisodiyotining o'zi ijtimoiy ongda milliy va umuminsoniy tajribalarni uyg'unlashtirigan qadriyat sifatida shakllandi. Shu bilan birga bozor iqtisodiyotiga xos belgilar – kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, mulkka egalik, iqtisodiy raqobat, erkin mehnat, foyda ko'rish, savdo-sotiq, fermerlik kabi iqtisodiy faoliyat turlari haqida jahon standartlariga mos fikrlar paydo bo'ldi. Ularga adabiyotlar va OAVda turli qarashlar bildirildi, maxsus tadqiqotlar o'tkazildi. To'g'ri, bu tadqiqotlarda, matbuotdagi chiqishlarda bahs-tortishuv, fikrlar plyuralizmi deyarli sezilmaydi, iqtisodiy islohotlar ketidan ergashish kuzatiladi. Vaholanki, ijtimoiy ong, ayniqsa ilm-fanga tayanadigan aqlu idrok, ratsionallik ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarni ilmiy tanqid sintezidan o'tkazishi, kishilar tafakkurida innovatsion g'oyalar izlashga ishtiyoq o'yg'otishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari //Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo‘lida. 6 – jild. – T.: “O‘zbekiston”, 1998. – B. 125.
2. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyot – matbaa ijodiy uyi, 2015. - B.5
3. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz.T.7. -.T.: O‘zbekiston, 1999, 136-bet.
4. I.Ergashev, V.Qo‘chqorov, A.Xolov. Davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirishning nazariy masalalari» (o‘quv qo‘llanma). –T.: «Akademiya» nashriyoti, 2014. 132 bet.
5. Ro‘zieva R. Jamiatning ma’naviy yangilanishi: milliy va umuminsoniy qadriyatlар uyg‘unligi. – Toshkent: Falsafa va huquq inst. nashr., 2011. – 109 b.